

MAVZU: IMLO QOIDALARI

Yangi
yozuvining
1995-yilning
O‘zbekiston
Vazirlar
339-sonli
tasdiqlangan.

(lotin)
imlo
qarori

o‘zbek
qoidalari
24-avgustida
Respublikasi
Mahkamasining
bilan

U quyidagi 7 bo'limni o'z ichiga oladi:

1. Harflar imlosi:

Unlilar imlosi (1-7-qoidalar).

Undoshlar imlosi (8-32-qoidalar).

2. Asos va qo'shimchalar imlosi (33-37-qoidalar).

3. Qo'shib yozish (38-50-qoidalar).

4. Chiziqcha bilan yozish (51-56-qoidalar).

5. Ajratib yozish (57-65-qoidalar).

6. Bosh harflar imlosi (66-74-qoidalar).

7. Ko'chirish qoidalari (75-82-qoidalar).

Asos va qo'shimchalar imlosi

- 1. *a* unlisi bilan tugagan fe'lga *-v, -q, -qi* qo'shimchasi qo'shilganda *a* unlisi *o* aytiladi va shunday yoziladi: *sayla – saylov, bo'ya – bo'yoq; o'yna – o'ynoqi* kabi;
- 2) *i* unlisi bilan tugagan ko'pchilik fe'lga *-v, -q* qo'shimchasi qo'shilganda bu unli *u* aytiladi va shunday yoziladi: *o'qi – o'quvchi, sovi – sovuq* kabi.
- Lekin: *og'ri – og'riq, qavi – qaviq* kabi.

-
- 3) *k, q* undoshi bilan tugagan ko'p bo'g'inli so'zga, shuningdek, *bek, yo'q* kabi ayrim bir bo'g'inli so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *k* undoshi *g* undoshiga, *q* undoshi *g'* undoshiga aylanadi va shunday yoziladi: *tilak – tilaging, bek – begi; tayoq – tayog'i, yo'q – yo'g'i* kabi.

- Lekin ko'p bo'g'inli o'zlashma so'zga, bir bo'g'inli ko'pchilik so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda *k*, *q* tovushi aslicha aytiladi va yoziladi: *ishtirok – ishtiroki, ocherk – ocherki, erk – erki, huquq – huquqim, ravnaq – ravnaqi, yuq – yuqi* kabi.

* 4) quyidagi qo'shimcha qo'shilishi bilan so'zning tarkibida tovush tushadi yoki ortadi:

* a) *qorin, burun, shahar* kabi ba'zi so'zga egalik qo'shimchasi qo'shilganda, *qayir, ayir* kabi fe'lga nisbat shaklini yasovchi *-il* qo'shimchasi qo'shilganda, *ikki, yetti* so'zlariga *-ov, -ala* qo'shimchasi qo'shilganda ikkinchi bo'g'indagi unli aytilmaydi va *yoziqlmaydi: qorni, burning, shahri; qayril, ulg'ay, sarg'ay, ikki - ikkov* kabi;

* b) *u, bu, shu, o'sha* olmoshiga *-da, -dan, -day, -dagi, -da, -gacha, -cha* qo'shimchasi qo'shilganda *n* tovushi qo'shib aytiladi va shunday yoziqladi: *unda, bunday, shunda, o'shancha* kabi; *u, bu* olmoshlarga egalik qo'shimchalari quyidagicha qo'shiladi: *buningiz, o'shanisi* kabi;

5) *o, o', u, e* unlisi bilan tugaydigan soʻzga egalik qoʻshimchasi quyidagicha qoʻshiladi:

- * 1) koʻpchilik soʻzga egalik qoʻshimchasi *-m, -ng, -si; -miz, -ngiz, -si (yoki -lari)* shaklida tovush orttirmay qoʻshiladi: *bobom, bobong, bobosi; orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi* kabi;
- * 2) *parvo, obroʻ, mavqe, mavzu, avzo* soʻzlariga I, II shaxs egalik qoʻshimchasi qoʻshilganda bir *y* tovushi qoʻshib aytiladi va shunday yoziladi: *parvoyim, parvoying; parvoyimiz, parvoyingiz; obroʻyim, obroʻying; obroʻyimiz, obroʻyingiz* kabi;
- * 3) II shaxs egalik qoʻshimchasi *parvo, avzo, obroʻ, mavqe* soʻziga *-yi* shaklida, *xudo, mavzu* soʻziga esa *-si* shaklida qoʻshiladi: *avzoyi, mavzusi* kabi (*dohiy* kabi *y* undoshi bilan tugagan soʻzga ham III shaxsda *-si* qoʻshiladi: *dohiysi* kabi

*d) *men, sen* olmoshiga *-ni, -ning, -niki* qo'shimchasi qo'shilganda qo'shimchadagi *n* tovushi aytilmaydi va yozilmaydi: *meni, mening, meniki; seni, sening, seniki* kabi;

*6) quyidagi qo'shimchaning bosh tovushi ikki yoki uch xil aytiladi va shunday yoziladi: a) taqlid so'zdan fe'l yasovchi *-illa* (*chirilla, taqilla*) qo'shimchasi so'z tarkibida *v* yoki *u* tovushi bo'lganda *-ulla* aytiladi va shunday yoziladi: *shovulla, lovulla, gurulla* kabi;

*b) nisbat shaklini yasovchi *-dir* qo'shimchasi jarangli undosh bilan tugagan bir bo'g'inli so'zga (*kel* so'zidan boshqa), shuningdek, *z* undoshi bilan tugagan orttirma nisbat yasovchisidan keyin qo'shiladi: *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir* kabi. Qolgan barcha holda bu qo'shimcha *-tir* aytiladi va shunday yoziladi: *tiktir, kestir, uyaltir, chaqirtir* kabi;

Qo'shib yozish

- 1. Tarkibida *xona, noma, poya, bop, xush, ham, baxsh, kam, umum, aro, rang, mijoz, sifat, talab* kabi so'zlardan biri qatnashgan qo'shma ot va qo'shma sifatlar: *ishxona, qabulxona, ma'lumotnoma, tabriknoma, sholipoya, g'o'zapoya, ommabop, xushxabar, hamdo'st, hamsuhbat, orombaxsh, kamgap, umumxalq, sovuqmijoz, devsifat, izzattalab* kabi.

Qo‘shib yozish

- 1. Ikkinchi qismi **–ar** (inkor shakli **-mas**) qo‘shimchasi bilan tugaydigan qo‘shma ot va qo‘shma sifatlar: *otboqar, o‘rinbosar, molboqar, beshiktervatar, tezoqar, ertapishar, tinchliksevar, ishyoqmas, qushqo‘nmas* kabi.
- 2. **O‘xshatish, qiyoslash** asosida yuzaga keluvchi qo‘shma otlar va qo‘shma sifatlar: *karnaygul, qo‘ziqorin, otquloq, oybolta, bodomqovoq, devchechak* kabi.

3. Narsani **biror belgisi** asosida bildiruvchi qo'shma otlar: *olaqarg'a, qizilishton, achchiqtosh, mingoyoq* kabi.

4. Narsani **joyga nisbatan** bildiruvchi qo'shma otlar: *tog'olcha, cho'lyalpiz, suvilon, qashqargul* kabi.

5. Biror **maqsad, ish uchun** mo'ljallangan narsani bildiruvchi qo'shma otlar: *kirsovun, qiymataxta, tokqaychi, ko'zoynak* kabi.

- **6. Qaratqich + qaralmish** tipidagi birikmaning soʻzga aylanishi bilan yuzaga keluvchi qoʻshma otlar: *mingboshi, shaftoliqoqi, olmaqoqi, qovunqoqi* kabi.
- **7. Ikkinchi qismi turdosh otlardan** yoki **obod** soʻzi boʻlgan joy nomlari: *Sirdaryo, Kattaqoʻrgʻon, Toʻrtkoʻl, Yakkabogʻ, Yangiobod, Xalqobod, Fayziobod* kabi.
- Ammo ikkinchi qismi atoqli otlardan boʻlgan joy nomlari ajratib yoziladi: *Oʻrta Osiyo, Yuqori Chirchiq, Qoʻyi Chirchiq, Koʻhna Urganch* kabi.

■ 8. Takror taqlid soʻzga qoʻshimcha qoʻshish bilan yasalgan ot va feʼl:
pirpirak (pir-pir+ak), hayhayla (hay-hay+la), gijgijla (gij-gij+la)

■ 9. Marosim, afsona kabini bildiruvchi qoʻshma ot: *kiryuvdi, kelintushdi, qoryogʻdi* kabi.

-
- **10.** Rus tilidan aynan o‘zlashgan yoki kalka usulida hosil qilingan qo‘shma so‘zlar: *kinoteatr, fotoapparat, elektroapparat, elektrotexnika, teleko‘rsatuv, yarimavtomat, suvosti, bayramoldi* kabi.

- **11.** **Qisqartma** otlar qo‘shib yoziladi: O‘zMU (O‘zbekiston Milliy Universiteti), O‘zXDP (O‘zbekiston Xalq Demokratik Partiyasi) kabi.

Chiziqcha bilan yozish

- **1. Juft va takror soʻzlar** chiziqcha bilan yoziladi: *mehr-oqibat, katta-kichik, bordi-keldi, chopa-chopa, ayrim-ayrim, borib-borib* kabi.
- Juft soʻz qismlari orasida **-u (-yu)** bogʻlovchisi kelsa, undan oldin chiziqcha qoʻyiladi va juft soʻz qismlari ajratib yoziladi: **katta-yu kichik, tun-u kun, el-u yurt** kabi.
- -juft soʻzdan qoʻshimcha yordamida yasalgan soʻz ham chiziqcha bilan yoziladi: **baxt-saodatli, xayr-xoʻshlashmoq** kabi;

-
- Kuchaytirilgan belgi shakllari chiziqcha bilan yoziladi: *qop-qora, yam-yashil, yap-yapaloq, ko‘m-ko‘k, dum-dumaloq, kuppa-kunduzi, yop-yorug‘* kabi.
 - So‘zning **–ma, -ba** yordamida birlashgan qismlari: *uyma-uy, rang-barang, dam-badam, ko‘chama-ko‘cha*

-
- Rus tilidan aynan o‘zlashgan yoki kal’ka usulida o‘zlashgan so‘zlar asliga muvofiq chiziqcha bilan yoziladi: *injener–konstruktor, gramm-molekula, kilovat-soat, changlagich-purkagich, vitse-prezident* kabi.
 - Ayrim yuklamalar: *-chi, -ku, -u/yu, -da, -a/ya* kabi. Sen-a? sen-ku! Sen-a?

- Tartib son arab raqami bilan yozilsa, *-(i)nchi* qo'shimchasi o'rniga chiziqcha (-) qo'yiladi: *7-sinf, 5-„A» sinfi, 3-, 7-, 8- sinf o'quvchilari, 60- yillar, 1991- yilning 1- sentabri* kabi.
- Tartib sonni ko'rsatuvchi rim raqamidan keyin chiziqcha yozilmaydi: *XX asr, X sinf* kabi.

Ajratib yozish

- 1. Qo'shma fe'lning qismlari ajratib yoziladi: *imzo chekmoq, ta'sir etmoq, vafo qilmoq, sotib olmoq, olib kelmoq, olib chiqmoq* kabi.
- 2. Ko'makchi fe'l va to'liqsiz fe'l mustaqil fe'ldan ajratib yoziladi: *aytib ber, olib ko'r, ko'ra qol, ketgan edi, ketgan ekan* kabi.
- Lekin mustaqil fe'l bilan yordamchi fe'l orasida tovush o'zgarishi bo'lsa, bunday qism qo'shib yoziladi: *aytaver (ayta ber), boroladi (bora oladi), bilarkan (bilar ekan)* kabi.

-
- 3. Ko‘makchi oldingi so‘zdan: *shu bilan, soat sayin, borgan sari, bu qadar, kun bo‘yi* kabi.
 - Lekin *bilan* ko‘makchisining *-la* shakli, *uchun* ko‘makchisining *-chun* shakli chiziqcha bilan yoziladi: *sen-la, sen-chun* kabi.

- 4. Belgining ortiq yoki kamligini bildiruvchi ***och, to‘q, tim, liq, jiqqa, lang*** kabi so‘zlar bilan kelgan sifat turkumiga oid so‘zlar ajratib yoziladi: *och qizil, to‘q qizil, tim qora, liq to‘la, jiqqa ho‘l, lang ochiq* kabi.
- 5. ***Har, hech, hamma, ba‘zi, bir, qay, u, bu, shu, o‘sha*** so‘zlari yonida kelgan so‘zdan ajratib yoziladi: *har zamon, hech kim, hamma vaqt, ba‘zi bir, bir qancha, bir yo‘la, qay kuni, u yerga, bu yoqdan, shu yerdan, o‘sha yoqqa* kabi.

-
- Lekin ***birpas, birato‘la, birvarakayiga, biroz, birmuncha, buyon (beri)*** so‘zlari qo‘shib yoziladi.
 - **Qay so‘zi yer, yoq, yon** so‘zlari bilan kelganda bir **y** tushib qolishi natijasida bu so‘zlar qo‘shib yoziladi:
 - **Qiyoslang:** qay yerda – qayerda, qay yoqqa – qayoqqa, qay yondan – qayondan kabi.
 - **Qaybir, qayvaqt** so‘zlari ham qo‘shib yoziladi.

- 4. Murakkab sonlarning qismlari ajratib yoziladi: *yigirma besh, bir yuz ellik ikki* kabi.
- 5. Tojikcha izofali birikmalar ajratib yoziladi: *tarjimayi hol, nuqtayi nazar, oynayi jahon, dardi bedavo* kabi. Shuningdek, yangi imlo qoidalarida izofa undosh bilan tugagan soʻzlarga i shaklida, unli bilan tugagan soʻzlarga yi shaklida qoʻshilishi belgilab qoʻyildi.
- **Qiyoslang:** *dardi bedavo, nuqtayi nazar, tarjimayi hol, oynayi jahon, piri badavlat* kabi.

-
- Birinchi qismi chiqish kelishigida, ikkinchi qismi joʻnalish kelishigida boʻlgan **kundan kunga, yildan yilga** kabilar shuningdek, belgining ortiq darajasini bildiruvchi **koʻpdan koʻp, ochdan och** kabi birikishlar ajratib yoziladi.

KO'CHIRISH QOIDASI

- Ko'p bo'g'inli so'zning oldingi satrga sig'may qolgan qismi keyingi satrga bo'g'inlab ko'chiriladi: **to'q-son, si-fatli, sifat-li, pax-takor, paxta-kor** kabi. Tutuq belgisi oldingi bo'g'inda qoldiriladi: **va'-da, ma'-rifat, mash'-al, in'-om** kabi.

Soʻzning bosh yoki oxirgi boʻgʻini bir harfdan iborat boʻlsa, ular quyidagicha koʻchiriladi:

- 1) soʻz boshidagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi oldingi satrda qoldirilmaydi: **a-badiy emas, abadiy, e-shikdan emas, eshik-dan** kabi;
- 2) soʻz oxiridagi bir harfdan iborat boʻgʻin yolgʻiz oʻzi keyingi satrga koʻchirilmaydi: **mudofa-a emas, mudofaa, matba-a emas, mat-baa** kabi.

KO'CHIRISH QOIDASI

- O'zlashma so'zning bo'g'inlari chegarasida kelgan ikki yoki undan ortiq undosh quyidagicha ko'chiriladi:
- 1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko'chiriladi: *dia-gramma, mono-grafiya* kabi;
- 2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko'chiriladi: *silin-drik, kon-gress* kabi.

- Bosh harfdan yoki bo‘g‘inga teng qism va bosh harfdan iborat qisqartma, shuningdek, ko‘p xonali raqam satrdan satrga bo‘lib ko‘chirilmaydi: *BMT, O‘zMU, 16, 245, 1994, XIX* kabi.
- Harfdan iborat shartli belgi o‘zi tegishli raqamdan ajratib ko‘chirilmaydi: *5-„A” sinf, V „B” guruhi, 110 gr, 15 ga, 105 m, 25 sm, 90 mm* kabi.

- Atoqli ot tarkibiga kiradigan raqam nomi ajratilgan holda keyingi satrga ko‘chirilmaydi: „*Navro‘z–92*” (festival), „*O‘qituvchi–91*” (ko‘rik-tanlov), „*Andijon–9*”, „*Termiz–16*” (g‘o‘za navi), „*Boing–767*” (samolyot), „*Foton–774*” (televizor) kabi.
- **A.J.Jabborov, A.D.Abduvaliyev** kabilarda ismning va ota ismining birinchi harfiga teng qisqartmalar familiyadan ajratib ko‘chirilmaydi. Shuningdek, **v.b.** (va boshqalar), **sh.k.** (shu kabilar) singari harfiy oldingi so‘zdan ajratib ko‘chirilmaydi.



BOSH HARFLAR IMLOSI

- Kishining ismi, ota ismi, familiyasi, taxallusi, ramziy atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: **Dilbar, O‘rinova, Muhabbat Majidovna, Azamat Shuhrat o‘g‘li, Hamza Hakimzoda, Muhammadsharif So‘fizoda, Mannon Otaboy, Navoiy, Furqat; Yelpig‘ichxon, Salomjon Alikov** kabi.

- 67. Joy nomlari bosh harf bilan boshlanadi: **Andijon, Yangiyo‘l (shaharlar), Naymancha, Buloqboshi (qishloqlar), Bodomzor, Chig‘atoy (mahallalar), Zavraq (dara), Yarqoq (yaylov), Qoratog‘, Pomir (tog‘lar), Oqtepa, Uchtepa (tepalar), Zarafshon, Sirdaryo (daryolar), Yoyilma (kanal); Turkiya, Hindiston (mamlakatlar) kabi.** Bunday atoqli ot tarkibidagi sifatlovchi ham bosh harf bilan yoziladi: **Shimoliy Kavkaz, Markaziy Qizilqum** kabi.

BOSH HARFLAR IMLOSI

- Yulduz va sayyora, boshqa xil osmon jismining atoqli oti bosh harf bilan boshlanadi: *Hulkar, Qavs, Mirrix* (yulduz va sayyoralar nomi), *Tinchlik dengizi* kabi.
- *Yer, quyosh, oy* turdosh otlari sayyora nomi bo'lib kelgandagina bosh harf bilan yoziladi: *Yer Quyosh atrofida, Oy Yer atrofida aylanadi;*

-
- Muhim tarixiy sana va bayram nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Mustaqillik kuni, Xotira kuni, Ramazon hayiti, Navroʻz bayrami* kabi.
 - **Davlat**, **davlat oliy tashkiloti** va **mansabining**, **xalqaro tashkilot** nomidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Oʻzbekiston Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Misr Arab Respublikasi, Vazirlar Mahkamasi, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Raisi, Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudining Raisi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon Tinchlik Kengashi* kabi.

- Boshqa tarkibli nomda oliy mansabni bildiruvchi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *Bosh vazirning oʻrinbosari, Mudofaa vaziri, Yozuvchilar uyushmasi, Oʻzbekiston Milliy tiklanish demokratik partiyasi* kabi. Vazirlik va idora, korxonalar va tashkilot nomi tarkibidagi birinchi soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *Sogʻliqni saqlash vazirligi, Fan va texnika davlat qoʻmitasi, Fanlar akademiyasi, Tilshunoslik instituti* kabi

- Davlatning oliy darajali mukofoti nomi tarkibidagi har bir soʻz bosh harf bilan boshlanadi: *“Oʻzbekiston Qahramoni”* (unvon), *“Oltin Yulduz”* (medal). Boshqa mukofot, faxriy unvon, nishon nomidagi birinchi soʻzgina bosh harf bilan boshlanadi: *“Sogʻlom avlod uchun”* (orden), *“Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan fan arbobi”* (faxriy unvon), *“Matbaa aʼlochisi”* (nishon) kabi

- Tarkibli nomlarning bosh harfidan iborat qisqartmalar, atoqli ot bo'lmagan ba'zi birikmalarning qisqartmalari bosh harf bilan yoziladi: **AQSh (Amerika Qo'shma Shtatlari)**, **BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti)**, **AES (atom elektr stansiyasi)** kabi. Qisqartma tarkibida bo'g'inga teng qism bo'lsa, uning birinchi harfigina bosh harf bilan yoziladi: **ToshDTU (Toshkent davlat texnika universiteti)** kabi.

Kirill-o'zbek va lotin-o'zbek imlo qoidalarining qiyosiy tahlili

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосига кўра *шовилламоқ, ловилламоқ, гувилламоқ* (Қ.: 2- ва 50-параграф).
- Лотин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзувида тақлидий сўзлардан ясалган феълларда "v"дан сўнг "i" эмас, "u" ёзилади: *shovulla, lovulla* каби. (Қаранг: 37-қоиданинг 1-банди).

-
- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосида: *боғ-боққа, тоғ-тоққа, тег-тегкан* каби.
 - Латин графикасига асосланган янги ўзбек ёзуви имлосига кўра эса: *bog'ga, tog'ga, sog'ga, og'gan, sig'guncha, bargga, teggan* каби.

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви: *дупор бўйин* (от+от =қўшма сифат), *ҳаво ранг* (от+от =қўшма сифат), *бодом қовоқ* (от+от =қўшма сифат), *қўй кўз* (от+от =қўшма сифат), *ғўза пўчоқ* (от+от =қўшма сифат) каби (58-параграф, 3-қоида).
- Латин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзуви: "қоидалар"нинг 38-бандида, *хона, нома, бахш, ранг, мижоз, сифат* каби сўзлар ёрдамида ясалган қўшма от ва қўшма сифатларнинг қўшиб ёзилиши қайд этилган: *qabulxona, tabriknoma, orombaxsh, kamquvvat, bug'doyrang, sovuqmijoz, devsifat, suvtalab* каби. (Қаранг: 38-қоида).
- Қиёс қилинг: *ҳаво ранг* (рус-ўзбек ёзувида) – *havorang* (лотин-ўзбек ёзувида), *бодом қовоқ* (рус-ўзбек ёзувида) – *bodomqovoq* (лотин-ўзбек ёзувида), *қўй кўз* (рус-ўзбек ёзувида) - *qo'uko'z* (лотин-ўзбек ёзувида), *жигар ранг* (рус-ўзбек ёзувида) - *jigarrang* (лотин-ўзбек ёзувида) каби.

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имло қоидаларига кўра **минг боши, ўн боши, сўз боши** кабилар "бирикмаллик хусусиятини сақлаган сўзлар" сифатида ажратиб ёзилади
- Латин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзуви имлосига кўра эса "қаратувчили бирикманинг бир сўзга айланиши билан юзага келган қўшма отлар қўшилиб ёзилади: **mingboshi, so'zboshi, olmaqoqi**"

- 1956 йил "қоидалари"да иккинчи компоненти "ё"лашган товуш билан бошланган *шер юрак, муз ёрар, иш ёқмас, қўл ёзма* типдаги сўзларнинг ажратиб ёзилиши айтилган.
- Латин графикасидаги янги ёзувда бундай сўзлар қўшилиб ёзилади: *sheryurak, muzyorar, ishyoqmas* каби

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосига кўра *еру осмон, ору номус, туну кун, кечаю кундуз, ёшу қари, қўю қўзи* каби жуфт сўзларда дефис (чизиқча) қўйилмайди.
- Лотин графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосига кўра ҳам бундай сўзлар ажратиб ёзилади, аммо уларнинг қисмлари орасида -и(-уи) боғловчиси келса, шу элементлардан олдин чизиқча қўйилади: *do'st-u dushman, kecha-yu kunduz* каби

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосига кўра йил ва ойларни (числоларни) кўрсатувчи арабча рақамдан сўнг чизиқча (дефис) ёзилмайди: **1956 йил 22 сентябрь** каби. Латин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзуви имлосига кўра бундай ўринларда чизиқча қўйилади: **1991-yilning 1-sentabri, 60-yillar** каби.

- Рус графикаси асосидаги ўзбек ёзуви имлосида: *йилдан-йилга, кўпдан-кўп*
-
- Латин графикаси асосидаги янги ўзбек ёзуви имлоси: *ko'pdan ko'p, tekindan tekin, yangidan yangi, ochiqdan ochiq, qizigandan qizigan* кабилар ажратиб (чизиқасиз) ёзилади
- Рус-ўзбек ёзуви: *бир оз*
- Латин-ўзбек ёзуви: **biroz**

-
- Kirillda мўътабар, мўъжиза, мўътадил tarzida yozilsa, lotinda mo‘tabar, mo‘jiza, mo‘tadil shaklida yoziladi.

-
- *orzum, orzung, orzusi; orzumiz, orzungiz, orzusi*
 - *quvdir, egdir, kuldir, yondir; o'tkazdir, tomizdir.* -tir qo'shimchasi esa bir bo'g'inli jarangsiz undosh bilan va ko'p bo'g'inli z dan boshqa tovushlar bilan tugagan so'zlarga qo'shiladi: *tiktir, ektir; uyaltir, chaqirtir* kabi.

-
- Рус - ўзбек ёзуви имлосида изофали сўзлар *нуқтаи назар, ойнаи жаҳон, дарди бедаво*
 - Латин- ўзбек ёзуви имлосида: *dardi bedavo nuqtayi nazar.*

-
- Lotin imlo qoidalarining 77-bandida:
“O‘zlashma so‘zlarning bo‘g‘inlari chegarasida kelgan ikki yoki uch undosh quyidagicha ko‘chiriladi:
 - 1) ikki undosh kelsa, ular keyingi satrga birgalikda ko‘chiriladi: *dia-gramma*, *mono-grafiya* kabi;
 - 2) uch undosh kelsa, birinchi undosh oldingi satrda qoldirilib, qolgan ikki undosh keyingi satrga ko‘chiriladi: *silin-drik* kabi”.

- *metall, kilogramm, kilovatt, kongress* kabi o'zlashma so'zlar oxirida bir undosh aytilsa ham, ikki harf yoziladi. Lekin bunday so'zga **xuddi shu tovush bilan boshlanadigan** qism qo'shilsa, so'z oxiridagi bir harf yozilmaydi: *metall+lar = metallar, kilogramm+m i= kilogrammi* kabi.

